

MANDARINNING MEVA PO'STI XALQ TABOBATIDA ISHLATILISHI

BEKMIRZAYEVA MASHXURA BAXTIYORJON QIZI- Andijon davlat universiteti, kimyo yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mandarinining meva po'sti qadimdan an'anaviy tibbiyotda ishlatilgan va hozirgi kunda ham muhim farmakologik resurs sifatida o'rganilmoqda. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, mandarin po'sti tarkibida ko'plab biologik faol moddalar flavonoidlar, efir moylari, pektinlar, alkaloidlar, vitaminlar, fenol birikmalar mavjud bo'lib, ular yallig'lanishga qarshi, antimikrob, antioksidant va hazmni yaxshilovchi ta'sirga ega. Ushbu maqolada Mandarinining meva po'sti kimyoviy tarkibi, farmakologik faol komponentlari va ularning sog'liq uchun foydalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Citrus reticulata, flavonoidlar, asab kasalligi, yallig'lanishga qarshi, antioksidant, bioaktiv moddalar.

Mandarin (Citrus reticulata) — rutadoshlar oilasining sitruslar turkumiga mansub doim yashil daraxtlar va butalar turi, mevali ekin. Mandarin subtropik va tropik (Yaponiya, Xitoy, Ispaniya, Meksika va b.) hududlarda ekiladi. **Vatani** — Xitoy. **O'zbekistonda 20-asrning 70-yillaridan** maxsus issiqxona va transheyalarda payvanddan o'stirilgan past bo'yli navlari yetishtiriladi. 5—6 yoshda bir tupi **40 kg meva** beradi. Doim yashil daraxti balandligi **3 m** ga boradi. Mandarin **sovuqqa chidamli**. Ohak va gumusga boy tuproklarda yuqori hosil olinadi. Mandarin asosan, payvand yo'li bilan ko'paytiriladi. Ayni paytda mamlakatimizning barcha hududlarida mandarinning **1 ta navi** yetishtiriladi [1]. Mandarin po'sti turli bioaktiv birikmalar bilan boy bo'lib, ularni oziq-ovqat, farmasevtika va kosmetika sanoatida qo'llash mumkin. Uning tarkibidagi efir moylari, flavanoidlar, fenolik birikmalar, vitaminlar hamda mineralllar salomatlik uchun foydali xususiyatga ega [2]

Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan mandarin mahsuloti **Afg'oniston, Eron, Turkmaniston** kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. **Shox-shabbasi qalin** katta bo'lmagan daraxtchadir. Novdalari tikansiz. **2-3 yilda** hosilga kiradi. **Mevasi** sharsimon shaklda, po'sti yupqa, silliq yoki biroz g'adir-budur, qizil-to'q sariq rangda. Har yili mo'l hosil beradi. Mevalari **noyabr-dekabr** oylarida pishadi. **Navning o'suv** davri 220-240 kun, o'simlik bo'yi 2-2,5 m, **hosildorligi** 130-150 s/ga,

bir tupdagi hosil vazni 10 kg atrofida, bir dona meva vazni o'rtacha 80-100 g. Navning **afzalligi** – tez hosilga kiradi va hosildor [3,4].

Mandarin po'stidagi flavonoidlar va askorbin kislotasi hujayralarni erkin radikallar zararlanishidan himoya qiladi. Bu ta'sir qarish jarayonini sekinlashtiradi va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi.

Limonen va tangeretin singari terpenoidlar yallig'lanish mediatorlarini bostirish orqali shamollash, artrit, allergik reaksiyalar kabi holatlarda foydali ta'sir ko'rsatadi. Antibakterial ta'siri bilan esa zararli mikroorganizmlarni faolligini pasaytiradi.

Ba'zi tadqiqotlar nobiletin va limonen moddalari saraton hujayralarining ko'payishini inhibitsiya qilishda faol ekanligini ko'rsatgan. Ular xususan ko'krak, yo'g'on ichak va o'pka saratoni bilan bog'liq hujayra liniyalarida sinab ko'rilgan.

An'anaviy tibbiyotda mandarin po'sti ovqat hazm qilish muammolari, gaz to'planishi, diareya, ko'ngil aynishi, jigar faoliyatini yaxshilashda ishlatilgan. Pektin va efir moylari me'da-ichak faoliyatini normallashtiradi.

Vitamin C, flavonoidlar va polisaxaridlar kombinatsiyasi organizmning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini kuchaytiradi. Ayniqsa, gripp va shamollash mavsumida profilaktik maqsadlarda tavsiya qilinadi.

Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va AQShda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, *Citrus reticulata* po'stidagi flavonoidlar yurak-qon tomir sog'lig'i, hazm tizimi, antioksidant himoya va yallig'lanishga qarshi faoliyatda alohida o'rin tutadi.

Mandarinining meva po'sti — boy kimyoviy tarkibga ega tabiiy xomashyo bo'lib, ko'plab shifobaxsh xususiyatlarga ega. Flavonoidlar, efir moylari, vitaminlar va pektinlar uning farmakologik faoliyatini belgilaydi. Ular antioksidant, yallig'lanishga qarshi, hazmni yaxshilovchi, antimikrob va immunitetni oshiruvchi ta'sirlari bilan ajralib turadi. Shu sababli, mandarin po'sti asosidagi biologik faol qo'shimchalar, fitopreparatlar va funksional oziq-ovqatlar ishlab chiqarish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Асқаров И.Р. Табобат қомуси. Т.: "Мумтоз сўз". – 2019. – Б. 1142.
2. Асқаров И.Р. Сирли табобат. – Т.: Фан ва технологиялар нашриёт-матбаа уйи. 2021. – Б. 1084.
3. Chen, L., Liu, J., & Zhang, H. (2019). Bioactive compounds from *Citrus reticulata* and their health benefits. *Journal of Functional Foods*, 57, 354–364.
4. Li, S., Lo, C. Y., & Ho, C. T. (2006). Hydroxylated polymethoxyflavones and methylated flavonoids in sweet orange (*Citrus sinensis*) peel. *Journal of Agricultural and Food Chemistry*, 54(12), 4176–4185.

